



## **IJOD MAKTABLARIDA FOYDALANILAYOTGAN INGLIZ TILI DARSLIGI LASER B1 DA O'QUVCHILARNING TANQIDIY FIKRLASH MALAKALARINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA BERILGAN MASHQLAR**

**Ismoiljonov Shuxratjon Boymirza o'g'li**

Namangan davlat chet tillari instituti tayanch doktoranti

G-mail: [mesbukhrat@gmail.com](mailto:mesbukhrat@gmail.com)

Tel: +998 93 913 76 16

**UO'K 37.025.7:373.1**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Respublikamizdagi ijod maktablarida foydalanilayotgan “Laser B1” ingliz tili darsligida o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash malakalarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar tahlil qilinadi. Tadqiqot, tanqidiy fikrlashning o‘quvchilarning ijodiy va intellektual rivojlanishidagi o‘rni va ahamiyatini ochib beradi. “Laser B1 Student’s Book” darsligi mazmuni chuqur o‘rganilib, unda o‘quvchilarga tanqidiy fikrlashni shakllantirish uchun taqdim etilgan mashqlar va topshiriqlar qay darajada samarador ekanligi baholanadi. Tadqiqot natijasida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga doir mavjud yondashuvlar hamda darslikni takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar keltiriladi.

**Kalit so‘zlar:** tanqidiy fikrlash, “Laser B1”, ijod maktablari, ingliz tili, mashqlar, o‘quvchilar, darslik tahlili, ijodiy fikrlash, ta’lim usullari, topshiriqlar.

**Аннотация:** В данной статье анализируются упражнения, направленные на развитие навыков критического мышления учащихся в учебнике английского языка “Laser B1”, который используется в школах творчества нашей республики. Исследование раскрывает роль и значение критического мышления в творческом и интеллектуальном развитии учащихся. Содержание учебника “Laser B1 student's Book” глубоко изучено, в нем оценивается, насколько эффективны упражнения и задания, представленные учащимся для формирования критического мышления. В



результате исследования будут представлены существующие подходы к развитию критического мышления, а также практические рекомендации по совершенствованию учебника.

**Ключевые слова:** критическое мышление, “лазер В1”, школы творчества, английский язык, упражнения, ученики, анализ учебника, творческое мышление, методы обучения, задания.

**Abstract:** This article analyzes the exercises aimed at developing students' critical thinking skills in the English language textbook “Laser B1”, which is used in creativity schools in our Republic. The study reveals the role and importance of critical thinking in the creative and intellectual development of students. The content of the textbook “Laser B1 student's Book ” is studied in depth, in which it is assessed to what extent the exercises and tasks presented to students to form critical thinking are effective. As a result of the study, existing approaches to the development of critical thinking and practical recommendations for improving the textbook are presented.

**Key words:** critical thinking, “Laser B1”, creativity schools, English, exercises, learners, textbook analysis, creative thinking, educational methods, assignments.

## **Kirish**

Oliy ta'limning tamal toshi bo'lgan tanqidiy fikrlash talabalarning o'zlashtirishi uchun hal qiluvchi mahorat sifatida tobora e'tirof etilmoqda. Axborotni tahlil qilish, dalillarni baholash va mustaqil mulohazalarni shakllantirish qobiliyati bugungi murakkab dunyoda eng muhim hisoblanadi. An'anaviy ta'lim usullari bu ko'nikmalarga urg'u bergan bo'lsa-da, ta'limga texnologiya integratsiyasi tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini oshirish uchun yangi yo'llarni ochdi. dissertatsiyamizning ushbu qismida yuqori sinf o'quvchilariga alohida e'tibor qaratgan holda, ingliz tili ta'limi kontekstida texnologiya va tanqidiy fikrlashning kesishishini o'rganadi.

## **Adabiyotlar tahlili**



Yangi O'zbekistonning bugungi modernizatsiyalashtirilgan ta'lim jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish orqali ta'lim oluvchilarning uzluksiz ta'lim tizimida hayotiy va moslashuvchan ko'nikmalarini rivojlantirish tizimini yaratish, muammolari va tanqidiy fikrlash malakalarini shakllantirish va rivojlantirish usul va metodlari D.Sharipova , K.Riskulova , M.Yakubbayev , N.A.Mamadjonova , O.Dadabolayeva , O.Musurmonova , R.Juraev , T.Nazarov , X.Mamatkulov , Sh.A. Abdullayeva , Sh.Sharipov larning tanqidiy fikrlash, uning o'ziga xos xususiyatlari va umumiy tavsifi borasida ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan A.I.Lipkina , B.M. Teplov , D.M.Shakirova , Fatih Uzturk , L.V.Xoxlova , M.V.Klarin , V.I.Mushtavinskaya , Yu.A.Samarin va boshqalarning ilmiy - tadqiqot ishlarida chet tili o'qitish jarayonida o'quvchilarda tanqidiy fikrlash malakalarini takomillashtirishning pedagogik va psixologik asoslari tadqiq etilgan.

Xorijlik olimlar D.Halpern , E.Torrance , J.P.Guilford , H.Puchta M.Fahim , M.Scriven , R.H.Enis, R.Pol , R.Boostrom , va Özkaya, Ö.Miraç; S.Nuriye larning tadqiqotlarida ham ta'lim jarayonida tanqidiy fikrlashning ahamiyati turli darajada ochib berilgan va tanqidiy fikrlash tushunchasining nazariy asoslari o'rganilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqot umumiy va ijodiy maktablar uchun mo'ljallangan ingliz tili darsliklarida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan materiallarning mavjudligini baholash maqsadida qiyosiy tahlil metodologiyasidan foydalanadi. Tadqiqot doirasida kontentni tahlil qilish, darsliklarni baholash hamda ekspert xulosalari asosida tahlillar olib boriladi. Qiyosiy tahlil usuli asosida ijodiy va umumta'lim maktablarida qo'llanilayotgan ingliz tili darsliklari o'rganilib, ularning tanqidiy fikrlashga qaratilgan tarkibiy jihatlari tahlil qilinadi va baholanadi.

### **Tahlillar va natijalar**

Ijod maktablari qo'llanayotgan Laser B1 by Macmillan Publishers darsligida 9-sinf uchun berilgan mavzulardan biri “Weird and Unexpected” mavzusini o'rganishda



o‘quvchilar noma’lum uchar jismlar, madaniyatlar aro ishonib kelingan mif va afsonalar haqidagi matnni o‘qishdan oldin jadvalni to‘ldiradilar:

**Jadval:1**

I know	I'd like to know	I've known
<p>UFOs are unidentified flying objects.</p> <p>The Loch Ness Monster is a legendary creature said to inhabit Loch Ness in Scotland.</p> <p>Bigfoot is a purported ape-like creature said to inhabit North America.</p> <p>The Bermuda Triangle is an area in the North Atlantic Ocean associated with mysterious disappearances.</p> <p>Ghosts are the spirits of dead people believed to appear to the living.</p>	<p>Is there concrete evidence of extraterrestrial life or UFOs?</p> <p>What scientific explanations could account for the Lizard man sightings?</p> <p>Are there any credible eyewitness accounts of Inuit in Canada?</p> <p>What is the true cause of the disappearances in the Eastern Airlines Flight 401?</p> <p>Can the existence of ghosts be scientifically explained or debunked?</p>	<p>Many people have reported seeing UFOs but no definitive proof exists.</p> <p>The Lizard man remains a popular legend without concrete evidence.</p> <p>Numerous alleged Inuit sightings have been reported but none verified.</p> <p>Several theories, including weather anomalies and human error, have been proposed for the Eastern Airlines Flight 401.</p> <p>Belief in ghosts is widespread, but scientific evidence for their existence is lacking.</p>

1. Grouping. Ushbu texnologiyada o‘quvchilardan so‘zlarni, ma’lumotlarni, mavzu turlarini va shunga o‘xshash boshqa leksik birliklarni guruxlarga ajratishadi masalan: Ijod maktablari qo‘llanayotgan Laser B1 by Macmillan Publishers darsligida 9-sinf uchun berilgan mavzulardan biri “the Weird and the Unexpected” mavzusini o‘rganishda o‘quvchilar sifat so‘z turkumiga oid so‘zlarni semantik ma’nolariga qarab farqlab, guruxlarga ajratishadi:

**Rasm:1****Descriptive language**

**1** We can use the words below to make a story descriptive. Write them in the correct box.

amazing answer ask awful brilliant	claim disastrous dreadful enormous excellent	explain fantastic gaze glance glimpse	great horrible huge marvellous notice	promise reply rubbish scream shout	stare state suggest terrible terrific	tiny watch whisper wonder wonderful
<b>1 say</b>	<b>2 look, see</b>	<b>3 very good</b>	<b>4 very bad</b>	<b>5 very big</b>	<b>6 very small</b>	

(manba: Laser B1 Student's Book, Macmillan Publisher 2013, p22)

**2. Short story.** Bu texnologiyada o'quvchilar o'zlari tanlagan yoki darslikda berilgan mavzuga qisqa hikoya tuzadilar. Hikoya tuzishdan oldin o'z oldilariga kreativ va tanqidiy savollarni qo'yadilar:

**Rasm:2**

You have decided to enter a short story competition. The rules of the competition state that your story must end with the words '*... and he always believed in his dreams from that day on.*'  
Write your story for the competition.

- 1 Who is 'he'?
- 2 What happened in his dream?
- 3 Did he tell anyone about his dream?  
Who?
- 4 How did his dream come true?
- 5 How did he react?
- 6 How must your story end?



(manba: Laser B1 Student’s Book, Macmillan Publisher 2013, p23)

3. True/false/not given. Ushbu texnologiyani o‘quvchilar reading, listening kompetensiyalarida bajarishlari mumkin bo‘lib, unda o‘quvchilardan tinglangan yoki o‘qilgan tekstda ko‘ra berilgan gaplarni to‘g‘ri, noto‘g‘ri yoki umuman berilmagan deb belgilashlari kerak. Bu mashq albatta o‘quvchini diqqatini bir joyga qaratishdan tashqari, uni matnni yoki audio-trnascriptni tahlil qilishi, o‘z bilimlaridan foydalanishi, ma’lumotlarni to‘plashi, anlaiz-sintez qilishi, to‘plangan ma’lumotlarni solishtirishi va baholashini talab qiladi.

Rasm:3

**3** **1.10** Listen again and decide whether the statements are true (T) or false (F).

- 1 Speaker 1 says Jackson stole a lot of money.
- 2 Speaker 2 immediately knew Jackson was a burglar.
- 3 Speaker 3 says Jackson didn't admit to his crimes.
- 4 Speaker 4 thought Jackson might be innocent.
- 5 Speaker 5 is probably a prison guard.

(manba: Laser B1 Student’s Book, Macmillan Publisher 2013, p29)

4. Feedback. Har bir mavzuning ohirida o‘quvchidan o‘tilgan mavzu yoki berilgan ma’lumotlar haqida o‘z fikr va mulohazalarini so‘rash:

Rasm:4

**Have your say!**

Did you enjoy reading the blog and comments?  
Why?/Why not?  
What comment would you write on the blog?

(manba: Laser B1 Student’s Book, Macmillan Publisher 2013, p35)

Rasm:5

**Have your say!**

Which of these statements do you agree with?  
Say why.

- I'm not worried about an asteroid hitting the Earth. It's never going to happen!
- I'm worried about an asteroid hitting the Earth. It could happen any day!



(manba: Laser B1 Student's Book, Macmillan Publisher 2013, p45)

Bu kabi texnologiyalar o'quvchini nafaqat berilgan mavzu haqidagi fikrini balki ayni vaqti kundalik hayoti, mavjud jamiyat va madaniyat hayoti va mentalitetidan kelib chiqib, o'z fikrlarini ham tahlil qilishga undaydi.

5. Sinkveyn. Fransuzcha "cing" so'zidan olingan bo'lib besh ma'nosini anglatadi. Bu besh misradan iborat she'r kabi ham bilinadi. Bu texnologiyadan Materiallarni sintez qilish usuli sifatida ishlatiladi. Lakonik shakl ma'lumotlarni umumlashtirish, fikrlarni bir nechta mazmunli so'zlar, ixcham va kichik iboralar bilan ifodalash qobiliyatini rivojlantiradi.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, sinkveyn quyidagi hollarda foydali bo'lishi mumkin:

- Nisbatan qiyin bo'lgan ma'lumotlarni sintez qilish uchun;
- talabalarning kontseptual bilimlarini baholash usuli;
- ijodiy ifodani rivojlantirish vositalari;

Ingliz tili darslarida sinkveyndan foydalanish turli xil ta'lim muammolarini hal qilishga yordam beradi. Keling, ushbu texnikaning ba'zi imkoniyatlarini sanab o'tamiz.

#### **Sinkveyn dars mavzusini belgilash usuli sifatida.**

Dars boshida doskada birinchi qator etishmayotgan sinkveyn bor, qolgan to'rt qatorning mazmunidan kelib chiqib, o'quvchilar sinkveyn mavzusini shakllantirishga harakat qilishadi.

“Traditions” mavzusida foydalanish misolida:

- 1) traditions,
- 2) popular, favourite,
- 3) to remember, to know, to respect,
- 4) tastes differ,
- 5) superstition.

**Sinkveyn matn ustida ishlashni umumlashtirish sifatida.** Bunday holda, ishning juftlashgan holda tashkil etilishi eng samarali ko'rinadi.

Har bir juftlikka sinxronlashtirish uchun 3-4 daqiqa vaqt beriladi, shundan so'ng bir nechta natijalar muhokama qilinadi va keyin bitta eng aniq sinxronizatsiyaga



birlashtiriladi. Keyinchalik, yakuniy versiya o'rganilgan matni qayta hikoya qilish uchun asos sifatida ishlatiladi.

**Sinkveyn uy vazifasini tekshirish usuli sifatida.** Bu erda ishni quyidagicha tashkil qilish mumkin: ba'zi o'quvchilar matn bo'yicha savollarga javob berishsa, boshqalari unga asoslangan sinkveyn tuzadilar. Agar matn oldindan o'qilmagan bo'lsa, she'r ishlamaydi, chunki sinkveyn mavzuni to'liq tushunishni talab qiladi.

**Sinkveyn yangi o'rganilgan lug'atni mustahkamlash sifatida.** Dars oxirida o'quvchilardan mavzu bo'yicha qanday yangi leksik birliklar o'rganilganligini eslab qolish so'raladi. Olingan ish yana qisqa hikoyani tuzish uchun mavzu sifatida ishlatilishi mumkin.

Shunday qilib, sinkveyn - bu ma'lum bir mavzu bo'yicha o'quv materialini bir necha so'z bilan taqdim etish, uni chuqurroq tushunishga erishish imkonini beruvchi tanqidiy fikrlashni rivojlantirish usuli.

U mutlaqo har qanday mavzuda ishlatilishi mumkin. Bu bolalarni eng aniq so'zlarni topishga va butun matnning ma'nosini ixcham shaklda qisqacha etkazishga o'rgatadi. Sinkveyn so'z boyligini boyitadi, qisqacha takrorlashga tayyorlaydi va fikrni shakllantirishga o'rgatadi.

### **Xulosa**

O'quvchilarning tanqidiy fikrlash malakalarini rivojlantirish bugungi texnologiyalar davrida juda muhim rol o'ynaydi. Tanqidiy fikrlash o'quvchilarga faqat ma'lumotlarni o'zlashtirishni emas, balki ularni tahlil qilish, baholash va qarorlar qabul qilishda mustaqil bo'lishni o'rgatadi. Ingliz tili darslarida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun mavjud imkoniyatlar kengaytirilgan. O'qituvchilar o'zlarining pedagogik yondashuvlarini takomillashtirish orqali o'quvchilarga yanada samarali yordam bera olishlari mumkin.

Ijod va umumta'lim maktablarining darsliklarida tanqidiy fikrlash malakalarini rivojlantirish uchun salmoqli materiallar mavjud. Har ikkala maktab turi darsliklarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan turli metodikalar va mashqlarni qo'llash orqali o'quvchilarning intellektual salohiyatini oshirish imkoniyatini taqdim etadi. Biroq,



ushbu materiallarning samaradorligini oshirish uchun o'qituvchilardan yanada e'tiborli bo'lish va o'quvchilarni tanqidiy fikrlashga undash kutiladi.

Ingliz tili darslarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun o'qituvchilar quyidagi tavsiyalarga e'tibor qaratishlari lozim:

**Materiallarni moslashtirish:** Darsliklarda tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi materiallarni yanada ko'proq qo'shish, shuningdek, ularni amaliy mashqlar bilan boyitish. Bu o'quvchilarga o'z fikrlarini erkin ifodalash va baholash imkoniyatini beradi.

**O'qitish metodlarini takomillashtirish:** Darslarda tanqidiy fikrlashni rag'batlantirish uchun innovatsion metodlarni, masalan, guruh ishlarini, debatlarini va ro'l o'ynash mashqlarini kengroq qo'llash. Bu metodlar o'quvchilarning faolligini oshiradi va ularga qarorlar qabul qilishda yordam beradi.

**O'qituvchilarni malakasini oshirish:** O'qituvchilar uchun tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bo'yicha maxsus treninglar va seminarlar tashkil etish. Bu ularning metodik yondashuvlarini kengaytirish va samaradorligini oshirishga yordam beradi.

**O'quvchilarga kengroq imkoniyatlar yaratish:** O'quvchilarga tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar, masalan, ilmiy tadqiqotlar va ko'ngilli faoliyatlarni taqdim etish. Bu o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini oshiradi.

**Ilmiy tahlil va sinovlar:** Darsliklarni ishlab chiqishda tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi metodlarni sinovdan o'tkazish va ularning samaradorligini ilmiy jihatdan baholash. Bu darsliklarning o'quvchilarga qanday ta'sir qilishini aniqlashga yordam beradi.

O'quvchilarning tanqidiy fikrlash malakalarini rivojlantirishda darsliklar va o'qituvchilarning roli katta ahamiyatga ega. Bu jarayonni samarali tashkil qilish orqali ta'lim sifatini oshirish va o'quvchilarning bilim darajasini yanada yuqori darajaga ko'tarish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ackerman J. M. The promise of writing to learn. *Writ. Commun.* 1993;10(3):334–370.
2. Ackerman J. M. The promise of writing to learn. *Writ. Commun.* 1993;10(3):334–370.
3. Champagne A., Kouba V., Mintzes J., Wandersee J., Novak J. *Assessing Science Understanding: A Human Constructivist View.* New York: Academic Press; 1999. Written product as performance measures; pp. 224–248.
4. E.R.Munandar and A.Munandar. Improving students' reading comprehension using scanning technique.
5. Ian J. Quitadamo and Martha J. Kurtz, *Learning to Improve: Using Writing to Increase Critical Thinking Performance in General Education Biology*
6. Keys C. W. Revitalizing instruction in scientific genres: connecting knowledge production with writing to learn in science. *Sci. Educ.* 1999;83(2):115–130.
7. Langer, Judith A.; Applebee, Arthur N. *How Writing Shapes Thinking: A Study of Teaching and Learning.* NCTE Research Report No. 22.
8. Langer, Judith A.; Applebee, Arthur N. *How Writing Shapes Thinking: A Study of Teaching and Learning.* NCTE Research Report No. 22.
9. *Laser B1 Student's Book,* Macmillan Publisher 2013
10. Marzano R. J. Fostering thinking across the curriculum through knowledge restructuring. *J. Reading.* 1991;34(7):518–525.
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 124-sonli “Uzluksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha davlat ta'lim standartini tasdiqlash to'g'risida” nomli qarori
12. Paziljanova Zulfiya Sabirjanovnaning “Zamonaviy nemis tili darsliklari vositasida talabalarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasi” Qo'qon 2022
13. Prepare grade 9 Teacher's book Cambridge University Press va Uzbekistan education for excellence program hamda the United States Agency for International



Development's Central Asia Office under Partnership Agreement 72011519C00004 p 4

14. Rivard L. P. A review of writing to learn in science: implications for practice and research. *J. Res. Sci. Teach.* 1994;31(9):969–983.
15. Sh.J. Schmidt Using Writing to Develop Critical Thinking Skills.
16. Syaadiyah Arifin Universitas Muhammadiyah Prof. Dr. Hamka, The Role of Critical Reading to Promote Students' Critical Thinking and Reading Comprehension.
17. Taxonomy of Educational Objectives, Handbook 1: Cognitive Domain. Addison-Wesley Publishing Company. Bloom, Benjamin S. 1956.
18. Thormann, Michael: Konzepte interkulturellen Lernens im Spiegel der Lehrwerkkritik. In: Wazel, Gerhard (Hrsg.): Institut für Interkulturelle Kommunikation: Interkulturelle Kommunikation in Wirtschaft und Fremdsprachenunterricht, Institut für Interkulturelle Kommunikation e.V. (Hrsg.). Frankfurt am Main. Wien u.a.: Lang, S.117. 2001
19. Tulenov J. Hayot falsafasi. – T.: O‘qituvchi, 1997. -B.183.